

Statistika

"Tashabusli byudjet"ning So'x tumanida 2023 yilning 1-choragi uchun ajratilgan mablag'lar ko'rinishi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori asosida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 30 foizi yo'naltirilishi belgilangan.

2023 yil 1-bosqichi uchun jami 3 milliard 784 million so'm mablag' ajratilgan. Shundan 340 million 600 ming so'm mablag' 2022 yil 2-bosqich ochik byudjet jamg'armasidagi qoldiq,

304 million so'm 2023 yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan va 3 milliard 139 million 400 ming so'm 2023 yil byudjet parametrlarida (tuman byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi) ko'zda tutilgan mablag' hisobidan ajratilgan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-25 16:17:05